

## ALLERGEN DARAXTLAR VA ULARNI INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI

**Abdurashidova Nilufar Shuhrat qizi**

Sharaof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti magistranti

[abdirashidovanilufar@gmail.com](mailto:abdirashidovanilufar@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Bizga ma'lumki tabiatni o'simliklarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular orasida ayniqsa daraxtlarning o'rni nihoyatda katta. Daraxtlar tabiatda havoni tozzalash, kislarod bilan boyitish vazifalarni ham bajaradi. Lekin tabiatda mavjud bazi daraxtlarning turlari insonlarda turli xil allergik kasalliklarni keltirib chiqaradi. Daraxtlarning allergik hususiyati ulardan ajraladigan gul changlariga bog'liq.*

**Kalit so'zlar:** *Manzarali daraxtlar, gul changlari, allergiya, pollinoz, gullash fazasi, animofil.*

## ALLERGENIC TREES AND THEIR EFFECT ON THE HUMAN BODY

### ABSTRACT

*Nature, as we know it, cannot be imagined without plants. Among them, the place of trees is extremely important. In nature, trees perform the function of air purification and oxygen enrichment. But some types of trees present in nature cause various allergic diseases in people. Allergic properties of trees depend on the pollen released from them.*

**Keywords:** *ornamental trees, flower pollen, allergy, pollinosis, flowering phase, animofil.*

### KIRISH

Hozirgi kunda atrof muhit yildan yilga iflosanib bormoqda. Ekalogiyaning bunday yomanloshuvini oldini olishda daraxtlarni o'rni nihoyatda katta. Ammo Atrof muhitni ko'kalamzorlashtirishda ekilayotgan daraxtlarning bazi turlari insonyatga salbiy tasir ko'rsatmay qolmaydi. Bunday daraxt turlari qatoriga shamol yordamida changlanadigan ( yong'oq tol, terak, qayin ) kabilarni kiritishimiz mumkun. Bunday daraxtlarning yetilgan changlari ko'p miqdorda va juda yengil bo'ladi. Bu esa ularni uzoq masofaga tarqalishiga imkon yaratadi. Animofil daraxtlarning changlari bir necha kilometrigacha yetishi mumkun. Bu esa allergen daraxtlarni changlarini uzoq masofada ham o'z hususiyatini namoyon qilishini anglatadi. Buni vaqida oldi olinmasa allegiyaga chalinyotgan insonlar soni yildan yilga oshib boradi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

Dastlab O‘simliklarni gul changlarini o‘rganish imkoniyati 1675 yilda Anton Levinguk mikroskopni ixtro qilgandan so‘ng paydo bo‘ldi. Mikroskop paydo bo‘lishi bilan botaniklar o‘simliklarda urug‘lanish qanday sodir bolishini tushunish uchun gul chang donalarini morfologiyasini o‘rganishni boshladilar. Lekin gul changlarni atrof muhitga tarqalgandan songgi taqdiri qiziq emas edi. Keyinchalik qazilma holdagi gul changlari Erenberg tomonidan 1854 - yilda aniqlangan. [1]

Gul changlarni botanic tarifini nemis olimi K. Veber tomonidan 1896-yilda berilgan. Qilingan bu ishlarning barchasi gul changlarni o‘rganishga ularni tahlil va palinomorfoloigiyanini ilmiy usullarini paydo bo‘lishga olib keldi. Spora gul changlarni tahlil qilish usuli Shvetsiyalik olim N.G. Lagerhaym tomonidan, keyinchalik Lennart fon Post tomonidan ishlab chiqilgan.[2]

Rosssiyada spora gul changlarni tahlil qilish usuli rivojlanadi. Semyanovich Dokurovskiy “polen tahlil usuli” 1923- yilda nashir etilgan. Bunga parallel ravishda sovet olimlari V. N. sukachov, K.K Markov, mintaqaviy spora polen diogrammasi tuzuldi.

Palinologiya atamasini ham 1944 - yilda H.A. Hayd va Uilyams tomonidan “Pollen Analysis circular” saxifasida geology Ernest Antevs bilan suhbatdan keyin kiritdi. O‘simlik changlarini zamonaviy texnologik vositalar yordamida o‘rganishning bir necha usullari mavjud.

Birinchi usul - yorug‘lik mikroskopi yordamida o‘simlik sporalari va gul changlarini o‘rganish.

Ikkinchi usul – skanerlash, electron mikroskop yordamida sporadermani strukuraviy tuzulishini o‘rganish.

Uchinchi usul – Transmission mikroskop yordamida, ultrastrukturani o‘rganish.

### **Natija va Muhokama**

Xozirgi paytda manzarali daraxtlar atrof muhitda nihoyatda ko‘p miqdorda ekib kelinmoqda. Bu daraxtlar orasida intraduksiya usulida keltirilgan daraxtlar ham nihoyata ko‘p. Biz 2021, 2022 va 2023- yillar davomida o‘simliklarni changlanish jarayoni o‘rgandik. O‘simliklarning changlanishi tashqi omillarga bog‘liq bo‘lib, Qish faslining issiq kelishi o‘simliklarda changlanish jarayonini erta kelishiga oli keladi. Yani o‘tgan 2022 yilda ob havoning issiq bo‘lishi changlanish jarayonini erta boshlanishiga olib keldi. O‘simliklarda changlanish jarayoni yanvar oyida boshlandi. Ayniqsa ochiq urug‘lilar vakillaridan sarvdoshlar oila vakillaridan Arizona sarvi yanvar oyining o‘rtasida changlari yetilishi maksilal darajaga keldi. Bu oila vakillaridan yana biri sharq biotasida ham changlanish jarayoni erta boshlangan. Sharq

biotasida changlanishning maksimal darajasi fevral oyining ikkinchi dekadasiga to'g'ri keldi. Sharq tuyasi o'rtacha allergen daraxt, Arizona sarvi esa kuchli allergenlik hususiyatiga ega. Allergen bo'lgan daraxtlar qatoriga toldoshlar oilasi vakillaridan tol va terak qayindoshlar oila vakillaridan oq qayin, qoraqayindoshlar oila vakillaridan qandag'och ham kiradi. Biz tadqiqotimizni obekti qilib Samarqand shahrining manzarali daraxtlarini oldik, eng avval shahardagi manzarali daraxtlar ro'yxatini tuzib oldik. Samarqand shahridagi manzarali daraxtlarni asosiy qismini ochiq va yopiq urug'lilar vakillaridan

Archa, qarag'ay, sarv, kashtan, chinor, shumtol, va boshqalar uchraydi. Biz bu manzarali daraxtlarning chang donalarini maxsus idishlarga yig'ib oldik. Chang hujayralarni asosan yanvar oyidan boshlab iyul oyigacha bo'lgan vaqtda yig'ib oldik. Yig'ilgan changlarni soya joyda quritib idishlarga solib quydik. Allergen daraxtlarning gul changlarini, qo'lda va maxsus chang yig'adigan aparatda ham yig'ib olsa bo'ladi.



O'simlik changlarining organizmiga tasiri natijasida insonlarda turli hil allergen kasalliklar avj oladi. Chang hujayralari ayniqsa nafas yo'llariga tushganda aksa urish, qichishish, achishish kabi belgilarni paydo bo'ladi. Gul changlari natijasida insonlarda palinoz kasalligi kelib chiqadi.

### **Xulosa**

Biz bu tadqiqotni olib borishimizdan maqsad manzarali daraxtlarni ekishda allergen bo'lgan daraxtlar sonini kamaytirish, ularni aholi gavjum bo'lgan maktab, bog'cha, istirohat bog'lariga ekmaslik to'g'risida tavsiyalar berishdan iborat. Bu orqali aholi orasida allergen kasalliklarni kamaytirish imkoni mavjud bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Палинология древесных растений произрастающих на территории России. Токарев П. И. [1 ]
2. Ruddaya N.A. Polen analysis 2010 [2]
3. „Dendralogiya” Qayumov A.K.
4. “Istiqbolli manzarali daraxtlar intraduksiyasi” Ochilov U.A. 2016 yil.